

INGLIZ ANTROPONIMLARI VA ULARNING LINGVOMADANIY LUGATLARDA BERILISHI

Jurayeva Iroda Axmedovna

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.n.

E-mail: irodajuraeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz antroponimlarining rivojlanish jarayoniga bag'ishlangan. Maqolada ingliz shaxs nomlarini davrlarga bo'lib ko'rib chiqilgan va har bir davrlardagi ijtimoiy sharoit, muxit, jarayon, jamiyat, madaniyati bilan bog'liqligi ta'kidlangan. Shuningdek, antroponimlarning rivojlanishida badiiy adabiyolarning roli muhokama qilingan. Lingvomadaniy lug'atlarda ismlarning berilishi, fonetik transkripsiyasi, madaniy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: antroponimlar, til, madaniy, ijtimoiy, lingvistik, lingvokulturologiya, jamiyat, davr, madaniy lug'at.

Аннотация: Данная статья посвящена процессу развития английских антропонимов. В статье рассматриваются английские личные имена по периодам и подчеркивается их связь с социальными условиями, средой, процессом, обществом, культурой в каждый период. Также обсуждалась роль художественной литературы в развитии антропонимов. Лингвокультурные словари анализируют присвоение имен, фонетическую транскрипцию, культурную информацию.

Ключевые слова: антропонимы, язык, культура, социальная, лингвистическая, лингвокультурология, общество, период, культурная лексика.

Annotation: This article is devoted to the process of development of English anthroponyms. The article examines English personal names by period and emphasizes their connection with social conditions, environment, process, society, culture in each period. The role of fiction in the development of anthroponyms was also discussed. Linguistic and cultural dictionaries analyze naming, phonetic transcription and cultural information.

Keywords: anthroponyms, language, cultural, social, linguistic, linguoculturology, society, period, cultural dictionary.

Inson ismlari ham tilga, madaniyatga ham birdek bog'liqdir. Antroponimlar lingvistik hodisa bo'lsa boshqa tomondan bu xalqning madaniy tarixiy va milliy ma'naviy manzarasini o'zida aks ettiradi. "Garchi dunyoning barcha xalqlari yagona insoniyatni tashkil qilsada, alohida madaniy xalqlar, qabilalar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farq ba'zan juda katta ahamiyatga egadir"[3].

Antroponimik tizim xattoki bir oilaga mansub, qarindosh xalqlar tillarida ham bir xil emas. Demak har bir millatning antroponimlari ma'lum bir geografik, madaniy, diniy va tarixiy, ijtimoiy omillar ta'siri ostida yaratilgan noyob hodisadir. Madaniyatlararo tafovutlar muammosi lingvokulturologiyaning asosiy masalasidir. Lingvokulturologiya deganda biz "til va

madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri haqidagi ilmiy bilimlarning murakkab sohasi"ni nazarda tutamiz [3].

Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardan boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslova, A.V.Superanskaya, ingliz antroponimlarini V.I.Karasik, K.B.Zayseva, O.A.Leonovich, T.A.Komova, S.I.Garaulya, M.Kovalyovalarning ilmiy nazariyalari xizmat qiladi. Mazkur ishlarda lingvokulturologiyaning mohiyati va bir qancha masalalari va antroponimlarning tarixi, til, madaniyat bilan bog'liqligi va lug'atlarda o'rganilgan.

Madaniyatga dunyo olimlari turlicha ta'rif beradi.A.V.Superanskaya madaniyatni "jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishidagi yutuqlari majmuisi bo'lib, u moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linishini ta'kidlaydi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir biridan ajralib turadi. Moddiy madaniyat (kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy) insoniyatning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha narsalar hamda kishilarning ishlab chiqarish tajribalari, ko'nikmalari va mahoratlaridir.Til, adabiyot, san'at, din, falsafa ma'naviy madaniyatga tegishli"[7]. Demak, antroponim lingvistik hodisa sifatida bir tomondan ma'naviy madaniyatning bir qismi va boshqa tomondan madaniyatdagi har qanday o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. "Antroponimlar, har qanday leksika singari, inson bilan bog'liq muhitida sodir bo'ladigan barcha hodisalarga ta'sir qiladi, buning natijasida nomlar jamiyat hayotida sodir bo'lgan tabiat hodisalarini beixtiyor ishirokchisiga aylanadi. Bularning barchasi inson ismlarida aks etadi"[9]. Antroponimlarning paydo bo'lishida iqlim, landshaftning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan bir qator maxsus hodisalardan tashqari, har bir mamlakatning milliy madaniyatining shakllanishiga bog'liq madaniy va tarixiy omil, ba'zan bir ishlab chiqarishning nomi, folklori va joylari bilan tanilgan tarixiy shaxslar, yangi kashfiyotlari bilan taniqli bo'lgan insonlar katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy nomlar, qoida tariqasida, milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, ba'zi nomlarda madaniy-tarixiy potensial o'zini yanada yorqinroq namoyon qiladi, boshqalarida u unchalik kuchli emas, lekin uni yaratgan yoki ishlatgan odamlarning madaniyati bilan u yoki bu tarzda bog'liq bo'lmagan bitta ism deyarli yo'q [8]. Shuning uchun ham bironta ism biror bir madaniyat bilan bog'liq bo'lmasdan qolmaydi.

Ingliz antroponimlarini o'rganib quyidagi guruhlariga bo'linishi, ularning til va madaniy lug'atatlarda berilishini tahlil qilinadi:

- 1) Qadimgi ingliz tili davri;
- 2) O'rta ingliz tili davri;
- 3) Yangi ingliz tili davri;
- 4) Zamonaviy ingliz tili davri.
- 5) Ingliz antroponimlarining madaniy lug'atlarda berilishi.

Qadimgi ingliz tili davridagi antroponimlar laqab va turdosh otlardan kelib chiqqan. Birinchi bosqich yoki qadimgi ingliz davrini ingliz antroponimik tizimining kelib chiqishi deb ta'riflash mumkin. Aynan o'sha paytda shaxs ismlari apellyativ so'z va taxalluslaridan ajralib, til birligi maqomini oladi. O'sha davrida qadimgi Britaniya hududi urf-odatlarini, madaniyati jihatidan juda farq qiladigan va turli tillarda so'zlashadigan xalqlar tomonidan bosib olinishi antroponimik tizimlarning tez-tez o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Demak, qadimgi ingliz nomlari toifasiga kelt, Rim, qadimgi german va Skandinaviya nomlari kiradi. Nomlash jarayoniga birinchi navbatda afsonalar, qadimgi xalqlarning turmush tarzi va an'analari ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, bu davr madaniyatlarning aralashishi davri bo'ladi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki,

turdosh soʻz hech qanday oʻzgarishsiz asosan nomlash uchun ishlatilgan, ismlar bir va ikki komponentlardan tashkil boʻlgan.

Masalan, *berht* «ëpyz»: *Berth, Bethold, Albert, Lambert*;

ad «nomlash, boylik»: *Edgar, Edit, Edvard, Edvin*;

ger «qurol»: *Gerxard, Gertruda, Ansgar, Oskar, Gerald* [1].

Segeweald – *sige* – gʻalaba, omad + *wealdan* – boshqarmoq, otlar kelib chiqishi xaqiqiy ingliz tilida (*White, Nach, Wade*), normand (*Ellen, Austin, Iracy*), baʼzan kelt (*Ewen, Madolock*), skandinav va boshqalar[2].

Miloddan avvalgi VIII asrda zamonaviy hudud Kelt qabilalari Buyuk Britaniyada joylasha boshladilar: gallar, britaniyaliklar, belgiyaliklar. Ular boy mifologiya va madaniy anʼanalarga ega jangovar xalqlar edi. Keltlarning madaniyati afsonalar va anʼanalarga boy edi, ularning baʼzilari bugungi kungacha saqlanib qolgan[5]. Keltlar oʻzlarining shaxsiy ismlarini olib kelishdi, tuzilishi va morfologik jihatdan quyidagicha ifodalangan:

- 1) bir komponentli yoki bir boʻgʻinli ismlar (*Caradog* < *cariad* -sevgi, *Blath* < *blath*-gul, *Grainne* < *gran*-don);
- 2) ikki komponentli ismlar yoki ikki boʻgʻinli ismlar (*Donnchadh* < *donn* – qoracha, *cath* - jang, jangchi, *Sithmaith* < *sith* – tinchlik, xotirjamlik, *maith* – mexribon, *Cadwgawn* < *cad* – urush, kurashish va *gwogawn* – shon, sharaf);
- 3) yasama ismlar (*Aodhan* < *Aoddh*, *Tearlaidh* < *Tearlach*, *Aonghasan* < *Aonghas*) [5].

Britaniyaga rimliklarning kelishi bilan yangi antroponimlar paydo boʻldi:

Leo, Leon (m). *Leo* is the Latin for lion ‘. It came into use in the late Roman period, was the name of several saints. *Mark, Marcus* (m). The Latin name *Marcus* was one of the few forenames in general use in Rome, and so is very common in Roman history [11].

VI asrda anglo-saksonlar davrida yangi ismlar paydo boʻldi:

- 1) bir boʻgʻinli ismlar- *Hwīta* (oq, yorugʻ, yarqiragan);
- 2) ikki boʻgʻinli ismlar – *Ēadgār* (< *ēad* - egalik qilish, mol mulk, baxt, boy + *gār* nayza);
- 3) yasama – *Man(n)ing* (< *man* odam + suffiks – *ing*) [5].

Ingliz antroponimlari fonetikasida ham quyidagi oʻzgariishlar roʻy berdi.

Cuthbert < *Cuthbeorht*, *Edith* < *Eadgyth*, *Edward* < *Eadweard*, *Ethel* < *Aethelgifu*, *Herbert* < *Herebeorht*, *Wilfred* < *Wilferdh* [4].

K. Zaysevaning taʼkidlashiga koʻra quyidagi ismlar kirib keldi:

- qadimgi nemis ismlari – *Adelaide, Albert, Arnold, Bertha, Bridget, Kevin, Norbert*;
- kelt ismlari – *Alan, Arthur, Bren, Brien, Jennifer, Kegan*;
- rim ismlari – *Anthony, Aurelia, Beata, Camilla, Laura, Pia*;
- qadimgi skandinaviya ismlari – *Ingrid, Ronald, Olaf, Astrid, Ingram, Ingrid*,

Brenda, Randolph, skand.-*Asgeirz* qadimgi - ing. *Esgar* [1]. Shunday qilib Angliyada hozirgacha yuqoridagi kabi ismlar saqlanib qolgan.

Oʻrta asrlarlarda yaʼni XI va XVI asrlarga kelganda esa ingliz antroponimlarini rivojlanishiga normand tilining taʼsiri juda katta boʻldi. Bu davrda *William, Richard, Robert, Hugh, Ralph* va ayollarga XII asrda egzotik va gʻayriodatiy ismlar qoʻyildi: *Antigone, Cassandra, Hodierna, Italia, Melodia, Norma, Splendor*[6].

Oʻrta asrlarga kelib esa erkaklar ismlari (*Jacklyn* < *Jack*, *Joan* < *John*, *Roberta* < *Robert*); qisqartirilgan, erkalatilgan ismlar (*Watte* < *Walter*, *Wille* < *William*, *Davie* < *David*); davr, bayram, xolatlilar bilan bogʻliq ismlar paydo boʻldi (*Christmas, Easter, Loveday* «muxabbat kuni», *Tiffany* yoki *Theophania* «Ollohberdi»)[13]. Shuningdek, bu davrda ism qoʻyishda cherkovning

ta'siri katta bo'ldi va ruhoniylar bolalarga ism qo'yishda avliyo va Injilda berilgan ismlarni qo'yishga chaqirdi: *Agatha, Agnes, David, Daniel, Eugene, Luke, Mary, Michael, Sebastian, Simeon*. Injildagi ismlar: *Abraham, Abigail, Adam, Benjamin, David* va boshqalar. Katolik ismlar *Basil, Bennet, Christopher, Denis, Martin, Valentine*.

Puritanlar davrida *Free-Gift, Reformation, Earth, Dust, Ashes, Delivery, More-Fruit, Tribulation, Discipline, Joy Again, From Above, Thankful, Praise-God, Live Well* ismlar qo'yildi.

Keyingi davr bu yangi Angliya davri XVI asrdagi islohotlar davri bilan boshlanadi. E.Viskombiga ko'ra, bu davr ingliz antroponimining rivojlanishi norman istilosidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Islohotlar davrida Injildagi ilohiy ismlar ishlatilmay qoldi yoki goh-gohida ishlatila boshlandi. Shu davrga kelib *Austin, Basil, Bennet, Crispin, Denis, Fabian, Gervase, Hillary, Martin, Theobald, Valentine* kabi ismlar muomaladan chiqib ketdi [12].

XVI-XVII asrlarda ism berishning yangi nasroniy tendensiyasi shakllana boshladi-Puritan (lotin puritanlaridan – "poklik"). Puritanlar ingliz antroponimlarning ro'yhatiga bir qator yangi ekzotik va ekstravagant ismlarni kiritdilar. O'zlarini va bolalarini har xil yomon ko'z va balolardan himoya qilish, o'z e'tiqodlarining pokligi, mustahkamligini saqlab qolish maqsadida juda kam uchraydigan qadimgi ibroniy va eski ahd nomlardan va turdosh otlardan foydalanib, diniy mavzulardagi ko'p komponentli ismlar qo'yildi. Ingliz antroponimlarida islohotlar davrida yaratilgan bir qator nomlar saqlanib qolgan. Nasroniy qadriyatlarini va fazilatlarini ulug'laydigan ayollar ismlari paydo bo'ldi: rahm-shafqat- *Charity*, ishonch - *Faith*, umid – *Hope* [8].

Shuni ham takidlab o'tish lozimki, antroponimik tizimining rivojlanishiga badiiy adabiyotlarning roli katta bo'lgan. Ma'lumki, adabiyot butun dunyo madaniyati va har bir etnik guruhning alohida shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Haqiqatni bilish vositasi bo'lgan adabiyot har doim borliq va axloqning murakkab masalalarini tushuntirishga va davrning ijtimoiy-madaniy manzarasini ochib bergan. V. Shekspir, D. Svift, V. Skott, S. Kolidj, A.Tennison, D.Bayronlar nafaqat ingliz adabiyotida, balki ingliz antroponimiyasida ham o'z izini qoldirgan yozuvchilardir. Chunki yozuvchilar o'zlarining asarlarida yangi ismlarni kashf qilgan yokida mavjud ismlarni keng ommaga tarqatgan. V.Shekspirning asarlari orqali, *Silvia, Celia, Julia, Juliet, Jessica, Ophelia, Viola*; J.Sviftning asarlari orqali *Vanessa, Stella* ismlar kirib keldi. O.A.Leonovich ta'kidlaganidek, antroponimlarning rivojlanishida ingliz yozuvchilari nafaqat mavjud ismlarni keng yoydilar balki o'zlari ham yangi nomlarni kashf qilishlari bilan hissalarini qo'shdilar. Yana *Alfred, Edgar, Manfred, Quentin, Diana* ismlar qayta ishlatilina boshlandi[6]. Demak, ingliz onomastikonida adabiyot tufayli yangi ismlar paydo bo'ldi va antik ismlar mashxur bo'ldi. Shuningdek, islohatlar davrida yangi "ma'noli" ismlar ko'proq ishlatilgan, *Desiderius va Desire, Amor va Love*, yoki juda kam uchraydigan nasroniy otlar qo'yilgan, masalan: *Bazaleel, Habakkuk* va k.h. Nasroniy ismlarni qo'yish tendensiyasi hozirgi zamon inglizabon mamlakatlarida ham saqlanib qolgan.

Hozirgi paytda Angliya va AQShda ko'pincha ikkita ism bo'lishiga qaramay (ayniqsa AQShda), ikki qismli antroponimik formula qo'llaniladi: ism+familiya. O'n yilliklar davomida ismlarning kelib chiqishi xilma-xilligi, ism qo'yishda tanlovning mavjudligi, ism qo'yish tendensiyalarining o'zgaruvchanligi va bularning shaxs yashaydigan joy bilan bog'liqligini kuzatish mumkin. 2024 yilda Angliyada eng mashhur qiz bolalar ismlari *Olivia, Amelia, Isla, Ava, Ivy, Freya, Lily, Florence, Mia, Willow, Rosie, Sophia, Isabella, Grace, Daisy*. O'g'il bolalarga *Noah, Oliver, George, Arthur, Muhammad, Leo, Harry, Oscar, Archie, Henry, Theodore* kabi ismlar qayd edilgan (www.mumsnet.com/most-popular-baby-names-uk).

So‘nggi bir necha asrlarda Buyuk Britaniya va AQShning antroponimik tizimlari hududiy, etnik va tarixiy omillar tufayli rivojlangandi. Buyuk Britaniya va AQShning antroponimik tizimlari rivojlanish tendensiyalariga ega. Bunday tendensiyalarga fan, ommaviy madaniyat, jahon urushlari va yaqin madaniyatlararo munosabatlarning rivojlanishlari ta'sir ko'rsatadi. Bular asosiy omillardir. Shuningdek, internet asrida yangi texnologiyalar bilan yaratilgan turli film qahramonlarining uydirma ismlari ham antroponimlarning rivojlanishiga va yangi ismlarning kelib chiqishiga yordam beradi.

Jamiyatning tarixiy, madaniy, ijtimoiy hayotini bevosita o‘zida aks ettirgan ingliz antroponimlarini quyidagi lug‘atlar guruhlariga bo‘lish mumkin:

- Onomastik (shu jumladan maxsus antroponimik lug‘at);
- lisoniy;
- ikki tilli;
- ensiklopedik va hokazo.

Ma'lumki, maqsad va foydalanish uslubiga qarab, lug‘at quyidagilarni o‘zida aks ettiradi: lug‘atlarda so‘zlar (maqola nomlari), ism yoki shaxs ismi + familiya, ularning fonetik transkripsiyasi, antroponimlarning madaniy va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, qilgan yangiliklari, kashfiyotlari haqidagi ma'lumotlar beriladi. Ba'zi adabiyotlarda antroponimlar kitoblarning oxirida ilova sifatida alohida ro'yxat qilib beriladi. Misol sifatida *Longman Dictionary of English Language and Culture* lug‘ati ingliz tili va madaniyatiga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan. Ushbu lug‘atda turli mamlakatlar va davrlarning mashhur siyosatchilari, davlat arboblari, madaniyat va sportchilarining ism shariflari berilgan. Bunday lug‘atlarda antroponimlar quyidagi shaklda berilgan:

-*shaxsiy ism, shaxsiy ism + familiya*. Lug‘atda mashhur insonlarning ism va shariflari berilib, fonetik transkripsiyasi ham berilgan keyin ular haqidagi tarixiy faktlar berilgan. Masalan, Britaniya va Amerika madaniyatidagi asosiy voqealar, mashhur insonlar haqida quyidagicha beriladi:

Roosevelt, Frank-lin Del-a-no /'frenkln 'delonou/ (1882-1945) the 32nd president of the US serving from 1933 to 1945. Franklin D. Roosevelt - is the only president to have served more than two terms... He was a popular and respected president, and many people listened to his “fireside chats” on the radio, in which he told people what was happening in the country and what he was doing. He was the first president to appear on television” [11].

Al-cott /'o:Ikot/|-ka:t/, *Lou-i-sa May* /lu'izzo 'mei/ (1832-88) an American writer whose books for children include “Little Women and Good Wives”.

Al-len /alan/, *Woody* (1935—) an American comic actor and maker of humorous films, whose films include *Annie Hall*, *Manhattan*, and *Hannah and her Sisters*.

[11].

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir antroponimning lug‘at yozuvi, fonetik yozuvi, shuningdek, tarixiy shaxsning kashfiyotlari va xizmatlari haqida ma'lumotlar aniq va ravshan qilib berilgan. Antroponimik lug‘atlar lingvokulturologiyadagi lingvistik ma'no va ekstralingvistik bilimlar o‘rtasidagi ikkala jihatni birlashtirgan lug‘atlardir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ism va madaniyat bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ism ham lingvistik hodisa ham madaniyat mahsulidir. Jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha ijtimoiy-madaniy va tarixiy o‘zgarishlar atoqli otlarda o‘z aksini topadi. Rivojlanishning hozirgi tendensiyasi aynan ingliz tilida so‘zlashadigan antroponimikani yangi nomlar yaratish yoki mavjud shakllarni o‘zgartirish orqali kengaytiradi. Xalqlarning ijtimoiy va madaniy hayoti shaxs

ismlarini yaratish uchun yangi manbalar va g'oyalarni taqdim etadi: din, tabiat hodisalari, onomastik shakllanishlar, shaxsiy xususiyatlar, ommaviy madaniyat, texnologiyalar shular jumlasidandir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz antroponimlari Buyuk Britaniya va AQShning mamlakat tarixi, madaniyati kontekstida, an'analari va psixologik xususiyatlarini ochib beruvchi va lingvomadaniyatida katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зайцева К. Б. Англичане // Системы личных имен у народов мира. –М.: Наука, 1989. – С. 37-42.
2. Жураева И. А. Номинативные функции антропонимов (на материале английского, узбекского и русского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 2012. – 17 с.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс - Волгоград: Перемена, 2002. – С. 73-85.
4. Ковалева М.С. Английские антропонимы и их лексикографическое представление. Автореф. дисс. канд. филол. наук. - Самара, - 2015. С. 24.
5. Комова Т.А., Гарауля С.И. Имя личное в англоязычном культурно-
6. историческом пространстве: Учебное пособие - М.: Книжный дом ЛИБРОКОМ, 2012. – 160 с.
7. Леонович О.А. В мире английских имен: Учеб.пособие по лексикологии – М.: ООО «Издательство АСТ»: ООО «Издательство Астрель», 2002. – С.7.
8. Суперанская А.В. Ваше имя? Рассказы об именах разных народов – М.: Армада-пресс, 2001. – 256 с.
9. Суперанская А.В., Сталтмане В.Э., Подольская Н.В., Султанов А.Х.
10. Теория и методика ономастических исследований. – М.:Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 256 с.
11. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. – 368 с.
12. Cresswell J. Dictionary of First Names. An indispensable guide to more than 10,000 names. - Edinburgh: Chambers Harrap Publishers Ltd., 2009. – 468 p.
13. Longman Dictionary of English Language and Culture. – Harlow: Longman Group UK Ltd, 3rd edition. 2005. P.1602.
14. Withycombe E.G. The Oxford Dictionary of English Christian Names. – OUP, 1990. P. 310.
15. Iroda Juraeva and Gulsara Kurbanova. Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages. Linguistics and culture review 5 (2), 2021, p.1291-1307.